


Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



ILK O'RТА ASRLAR ARAB NASRI(NOTIQLIK JANRI) – XITOBALARDA USLUBNING AHAMIYATI

Feruza Jurayeva

O'qituvchi, PhD,

Toshkent Oriental universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: uslub, johiliyat zamoni, xitoba, arab xalqi, oddiy muoloqot, yuksak, badiiy ta'birlar, tanlay olish, ehtiyoj, ta'sir kuchi.

Annotatsiya: Maqola adabiyotshunoslik fanining muhim muammolaridan biri bo'lgan uslub va uning ilk o'rta asr arab nasri, xususan notiqlik janri - xitobalardagi vaziyatini tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif ilk o'rta asr arab adabiy merosida juda katta nufuzga ega bo'lgan xitoba janrini tadqiq etish uchun arab xalqining so'z san'atiga bo'lgan tug'ma iqtidori va bundan foydalanuvchilarga yuksak ehtiromi manbalari qayerda ekanini izlab topishga intiladi. Johiliyat zamonlarida arab xalqining kundalik maishiy hayotidagi va ularning urug'-qabilaviy munosabatlardagi oddiy muloqotdan yuksak badiiy ta'birlar darajasiga ko'tarilgan xitobalarning jozibasida xatiblar qo'llagan uslubiy xususiyatlarni teran ilmiy nigoh bilan ko'zdan kechiradi. Muallif uni aytuvchilar(xatiblar)ning tinglovchilar darajasi, ta'bi, gapirilayotgan vaziyat, notiqlarning maqsadi va xitoba mavzusiga ko'ra xilma-xil uslubni to'g'ri tanlay olganliklari xitobaning ta'sir qudratini oshirishda muhim rol o'yashini e'tirof etadi. Maqola muallifi arab adabiyotining ma'lum bir davrlarida yetakchi janrga aylangan xitobalarning uslubini johiliyat, ilk islom va ummaviyalar davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ta'siri ostida harakatga kelishini ilmiy tadqiq etishga harakat qiladi. U tilga olingan har uchala davr notiqlari uchun umumiy va farqli jihatlarni ajratadi, ularga adabiy jihatdan baho beradi. Har bir davr uslubining o'ziga xosligini to'la aks ettiruvchi tipik xitobalarni uslubiy tahlil qiladi. Tahlil jarayonida muallif xitoba uslubining dinamik o'zgarishlarini badiiy bo'yoqlar ta'siri ostida ro'y berishini ko'rsatishga harakat qiladi. Maqola so'ngida muallif ilk o'rta asr arab xitobalari uslubi va arab notiqlarining omma oldida nutq aytishlarida bu muhim adabiy unsurning ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildiradi.

EARLY MEDIEVAL ARABIC PROSE (ORATORY GENRE) - IN CHITABLES STYLE IMPORTANCE

Feruza Juraeva
Teacher, PhD,
Tashkent Oriental University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: braj, nanddas, bhakti, poetry, krishna, chitswami.

Abstract: This article is devoted to the study of the style, which is one of the important problems of literary studies, and its position in the early medieval Arab prose, particularly in the oratorical genre (khitaba). To explore the genre of the khitaba, which was highly influential in the Arab literary heritage of the Arabs in the early Middle Ages, the author tries to find the origins of the Arab people's innate talent for the verbal arts and the high respect for those who use them.

The author of the article examines with a deep scientific eye those methodological features used by the khatibs, which helped transform the khitaba, which existed as a simple communication in the life of the Arab people and its tribal relations into a literary genre.

The author recognizes that the ability of speakers(khatibs) to choose different styles depending on the level of audience, tone, speech situation, speaker's purpose and topic of speech plays an important role in enhancing the impact of speech.

The author tries to scientifically investigate how the style of the khitaba, which became the leading genre in certain periods of Arabic literature, was influenced by social and political situations in the period of Jahiliyya, early Islam and the Umayyad Caliphs.

She identifies common and different features of the style of orators of all three periods named, and evaluates them from a literary perspective. The article methodically analyzes typical speeches, fully reflecting the uniqueness of the style of each period.

In the process of analysis the author tries to show that dynamic changes in the style of speech occur under the influence of artistic colors. At the end of the article the author expresses her opinion about the style of early medieval arabic khitabas and the importance of this important literary element in the public speaking of Arab orators.

АРАБСКАЯ ПРОЗА РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ (ЖАНР ОРАТОРСТВА) - В ПРИЗЫВАХ ЗНАЧЕНИЕ СТИЛЯ

Феруза Жураева
Преподаватель, PhD,
Ташкентский Oriental университет
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стиль, возраст невежества, обращение, арабский народ, простое общение, высокое, художественное выражение, возможность выбора, потребность, сила воздействия.

Аннотация: Статья посвящена исследованию стиля, являющегося одной из важных проблем литературоведения, и его положения в раннесредневековой арабской прозе, в частности ораторском жанре(хитаба). Для исследования жанра хитаба, имеющего большое влияние в арабском литературном наследии арабов в раннее средневековья, автор пытается выяснить, где кроются истоки врожденного таланта арабского народа к словесному искусству и высокого уважения к тем, кто им пользуется.

Автор статьи с глубоким научным взглядом рассматривает использованные хатибами те методологические особенности, которые помогли превращении хитабы, существовавшей в виде простого общения в быту арабского народа и его родоплеменных отношениях в литературный жанр.

Автор признает, что способность говорящих(хатибов) выбирать разные стили в зависимости от уровня аудитории, тона, ситуации речи, цели говорящего и темы выступления играет важную роль в повышении воздействия речи.

Автор статьи пытается научно исследовать, как на стиль хитабы, которая стала ведущим жанром в определенные периоды арабской литературы, повлияли социальные и политические ситуации в период джихилии, раннего ислама и в период Омейядских халифов.

Она выделяет общие и различные черты стиля ораторов всех трех названных периодов, оценивает их с литературоведческой точки зрения.

В статье методически анализируются типовые речи, в полной мере отражающие своеобразие стиля каждого периода. В процессе анализа автор пытается показать, что динамические изменения стиля речи происходят под влиянием художественных красок.

В конце статьи автор высказывает свое мнение о стиле раннесредневековых арабских хитабов и значении этого важного литературного элемента в публичном выступлении арабских ораторов.

KIRISH

Zamonlar o'tgan sari har qanday adabiyotda yangi adabiy janrlar, uslublar, mavzular, badiiy tasvir vositalari paydo bo'ladi, ba'zan yangi davr talablariga javob bera olmagan uslub yoki shakllar unutiladi, ba'zan eski shakllar yangicha ruh, yangicha rangda namoyon bo'ladi. O'rta asr arab xitobalari ham o'z tarkibi, muhiti va uslubida o'zgarishlarga uchradi. Buning birinchi sababi xitoba aytilgan ijtimoiy-siyosiy voqelik, u paydo bo'lgan muhitning odat, an'ana va qadriyatlari bo'lsa, ikkinchi sababi notiqlarning yangi avlodni badiiy ta'bning yangi ta'sirchan jihatlarini chuqurroq ilg'ay olganliklaridir.

Johiliyat davri arab she'riyati arab adabiyoti tarixida ayni davr arab nasriga qaraganda ancha keng va chuqr o'rganilgan bo'lishiga qaramay, mashhur rus olimi A. K. Kudelin fikricha, hali o'rta asrlar arab adabiyoti, xususan, uning uslubi to'g'ri va keng miqyosda o'rganilmagan,

bugungi kunga qadar ham uning arabshunoslikda juda kam o‘rganilgan yoki mutlaqo o‘rganilmagan qirralari mavjud. “Ehtimol o‘rtalasrlar nufuzli olimlarining ilmiy qarashlariga yetarli ahamiyat berilmagani yoki ularning fikrlari to‘g‘ri baholanmagani uchun arab adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasining eng muhim muammolari hozirgi zamon olimlarini o‘rtalarnikidan butunlay farq qiladigan talqinlarga olib boradi”¹.

O‘rtalasrlar arab adabiyoti poetikasi bilan shug‘ullangan bu olimning fikrlari, asosan, mumtoz arab she’riyati haqida bo‘lsa-da, o‘rtalasr arab nasri, xususan, poetik jihatlari qariyb o‘rganilmagan arab xitobalari – xutbalariga ham tegishlidir. Negaki “she’riyat hamisha arab mumtoz adabiyotida yetakchi bo‘lgan”² i va bizgacha namunalari nasrga qaraganda ko‘proq hajmda yetib kelgani bois o‘rtalasr arab poetikasi yoki poetika qonuniyatlari atamalari she’riyat doirasida ishlatilgan. Ammo “tarixiy nazm va nasr bir paytda paydo bo‘la oldi va shunday bo‘lishi ham kerak edi: bunda birining kuylaganini ikkinchisi tasvirlar edi”³.

Shu o‘rinda qadim arab she’riyatini tadqiq qilgan rus olimasi B. Ya. Shidfarning “Qabilia boshliqlarining hukmronligi, qabilalararo nizolar; qabilalar o‘rtasidagi tinchlik sulhlari, qabila oqsoqollarining majlislari; qabila vakillari kengashlari; xun intiqomi yoki bunday qasosni tovon to‘lash orqali hal etish; ma’jusiyalar, kohinlar hukmronligi; ularga g‘ayri tabiiy qudrat sohiblari, tabiat va qabila xudolarining o‘g‘illari (farzandlari) sifatida topinishlar to‘la hukm surgan, urug‘ qabilaviy munosabatlarga asoslangan, madaniy darajasi juda sodda arab jamiyatni muallaqtarga o‘xshagan yuksak she’riyat namunalarini yarata olishi mumkin edimi?”⁴ – degan savolini yodga olamiz. Ehtimol, islomgacha arab she’riyatida bunday ijtimoiy voqelik aks etmagandir, johiliyat shoirlari o‘z ijodlarini faqat o‘sha davr kishisi tasavvuri darajasidagi lirk mavzu va obrazlar bilan boyitgandir. Bunga sabab “tilga begonalik, yangilik ruhini berish kerak, negaki odamlar o‘zlariga tanish bo‘lmagan narsalardan taajjublanishga moyil va bu ular uchun yoqimli. She’riyat aynan shunday – real hayotdan uzoq, ammo ularga yoqimli va hayratlanarli voqelikni aks ettirar edi”⁵. Biroq Shidfar tilga olgan, urug‘ - qabila munosabatlari jo‘sh urgan qadim arab jamiyatni arab nasriga, xususan, xitobalarga ko‘chgan. Johiliyat davri xitobalari ana shu jamiyatning qoq yuragidan otilib chiqqan va o‘zi tug‘ilgan voqelikni to‘laligicha aks ettirgan. Negaki notiqlar xitobalarda tinglovchilariga she’riyatdan birlamchi kutiladigan estetik zavq berish uchungina emas, balki birlamchi maqsad tinglovchilarning muammolari, ular duch kelgan qiyinchiliklarni hal etishga yordam berish, ularning ruhiy holatini o‘zgartirishni maqsad qilar va badiiy-estetik ta’sir hamda ta’bir vositalarini shu maqsad bilan qo‘llardilar. Arab xitobalari o‘z davri she’riyatidan tamomila begona bo‘lmagan, ularda ham qadim johiliyat she’riyatiga xos ohangdorlik, musiqiylik muhim o‘rin tutgan. Shu sababli ilk nasr namunalarining qariyb barchasi sajda bitilgan. Qolaversa, xitobalardagi majoziy obrazlar tizimi ham aynan o‘sha davr she’riyatida tilga olingan tabiat, olam, koinot unsurlari edi.

Xitoba uslubini o‘rganish xitoba poetikasi sohasi uchun juda muhim bo‘lib, xitobashunoslikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O‘rtalasrlar xitobalari tinglovchi jamoaning darajasi, ta’bi, gapirilayotgan vaziyat, notiqning maqsadi va xitoba mavzusiga ko‘ra xilma xil uslubda bo‘lgan. Bu haqda al-Qalqashandiy “arablarda nasr va xatobaga katta inoyat borligi, xutbalarning balog‘at sirlari saqlangan, hikmatlar jamlangan sandiqlar ekanligi, ularda arablar boshdan kechirgan faxrli ishlar, xalifa va amirlarning minbarda turib aytgan nutqlari

¹Куделин А.Б. Арабская литература: поэтика, стилистика, типология, взаимосвязи. – С. 142.

²Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – С. 296.

³ Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.). – С. 1.

⁴ Веселовский А.Н. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 270.

mavjudligi va albatta, tildan mahorat bilan foydalanish natijasi o'laroq xoslar va ommaga mo'ljallangan xitobalarning alohida uslublari shakllanganligini aytadi⁵.

Xitobaning “uslubi deganda xatibning xitoba matnini tuzishda so‘z va iboralarni qo‘llash, jumla tuzish, uslubiy vositalardan foydalanishini tushunamiz. Va bunday uslub balig‘-komil, ta’sirchan bo‘lishi xatib maqsad va g‘oyalarining musavviri bo‘lishi kerak. Unda tasvir haqqoniy bo‘lishi, bayon eng go‘zal iboralardan tashkil topishi kerak”⁶.

Ilk o‘rta asrlar arab xitobalari barcha davrlarda umumiyl uslubiy komponentlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, biri ikkinchisida takrorlanmaydigan xususiyatlarga ham ega bo‘lgan. Bizning tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, “xutba janrining shakllanishida uning uslubi muhim o‘rin tutgan. Arab xutbalarining ustuvor xususiyati bu – emotSIONALLIKDIR. Emotsional ta’sirning samaradorligini oshirishga esa metafora, antiteza, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy ifoda vositalari xizmat qilgan. Ifodalilik va uslubning rang-barangligi nutqda maqollar va hikmatli so‘zlarni, she’riy parchalarni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llash hamda ko‘p jihatdan sajdan munosib foydalanishga bog‘liq bo‘lgan⁷.

Albatta, biz ham arab xitobalari uslubining asosiy jihatlaridan biri emotSIONALLIK ekaniga qo‘shilamiz, biroq bu omil arablarning tug‘ma, genetik va mental xususiyatlaridan kelib chiqishini ham diqqatdan qochirmaymiz. Ammo arab xitoblarining ta’sir kuchi faqat emotSIONALLIKDA deyish ham to‘g‘ri emas. Bunda xatibning obrazli tafakkuri, xitoba aytishdan maqsadi kundalik muloqot tilining kommunikativ vazifalaridan yuqori ritorik, qolaversa, estetik funksiya bajarish talablariga ham aloqador edi. Arab xitobalari uslubi haqida gapirilar ekan, eng avvalo, xatiblarning xitoba aytishda tanlagan so‘zleri, qo‘llangan badiiy san’atlar, kichik grammatik birlikdan gapgacha xatibning maqsadi uchun xizmat qilishiga to‘xtalish lozim. Negaki “til, uning birlklari badiiy adabiyotga olib kirilgunga qadar ham muayyan shakl va mazmun birligi sifatida mavjuddir. O‘z leksik, grammatik ma’nosiga ega bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi, gap kabi til birlklari yozuvchining badiiy maqsadiga bo‘ysundirilgan holatda tegishli badiiy-estetik mazmunni yuzaga chiqarish, ifodalash uchun qo‘llanadi”⁸.

Arab xitobalari uslubini o‘rganish birlamchi o‘rinda ularning tili bilan bog‘liq. Ilk o‘rta asr xitobalarining har bir muayyan tarixiy davrda xatiblar an’anaviy tarzda murojaat qilgan leksik, fonetik va grammatik birlklari, davr ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda eng ko‘p ishlatilgan badiiy tasvir vositalari ular uslubining yetakchi tamoyillarini ochib beradi, qolaversa, bu nasriy adabiyot namunalariagi bemisl badiiyatni nafaqat o‘z davri tinglovchisi, balki bugungi kun o‘quvchisi ko‘z oldida jonlantiradi.

Xitobalar uslubi tizimini tahlil qilishga kirishishdan oldin ilk o‘rta asrlar xitoblarida zamonaviy adabiy asar uslubiga qo‘yiladigan talab va me’yorlarni qo‘llash biz kutgan natijani bermasligini qayd etish joiz. Bunga sabab “biz uchun go‘yo hech qanday tasavvur bermaydigan shartli ifoda-qolip shaklida yetib kelgan bu asarlar, qachonlardir yangi janr bo‘lgan”⁹.

Johiliyat davri xitobalari uslubi. Johiliyat xatiblari uslubidagi asosiy jihat xutbalarda sajning keng qo‘llanilishi edi. Xatiblar tomonidan xalqi uchun tushunarli tilda, qabila va urug‘lar uchun ahamiyatli yoki mashhur bo‘lgan maqol hamda matallarni xutbalarda qo‘llashga harakat qilingan. Xatiblar ham qadim arab shoirlari kabi “tinglovchilar o‘rgangan, qabul qilgan

⁵ الشيخ أبي العباس القاشندي، كتاب صبح الأعشى، ج 1، ص 210.

⁶ إسماعيل علي محمد، فن الخطابة ومهارات الخطيب، ص 128.

⁷ Гаффарова У. Арабское ораторское искусство (хутба) VI - середины VIII вв: Автореф. дисс. канд. филол. наук.

⁸ Yo‘ldoshev M. Badiiy asar lingvopoetikasi. – B. 7.

⁹ Куделин А.Б. Арабская литература: поэтика, стилистика, типология, взаимосвязи. – С. 170.

so‘zlardan foydalanib qulqoqqa yoqadigan, kishi huzur topadigan”¹⁰ mavzularda xitoba aytar edilar.

Johiliyat xatiblari, odatda, xutbalarni tinglovchilar darajasi va xitoba mazmunidan kelib chiqib aytgan. Agar shohlar oldida aytilsa, albatta, hukmdorlarning sifatlarini madh etuvchi so‘zlar, mubolag‘ali majozlar qo‘llangan. Agar shoh oldida o‘zaro tortishuv yuzasidan xitoba aytilsa, notiqlar bir-birining nasl-nasabini yerga urish, o‘zining ustun tomonini ko‘rsatishga harakat qilgan va bu paytda kinoyaga ko‘p murojaat etilgan. Johiliyat xitobalari uslubi rang-barang parallelizmlar, tazodlar, o‘xshatishlar, majoziy obrazlar, takrorlarga asoslanib, obrazlar ko‘proq tabiat hodisalari, sahro hayvonlari, koinotga nisbatlangan.

Quyida johiliyatdagi tipik xitobalardan birini uslubiy tahlil qilib ko‘ramiz:

”لَا تُشْطِّهُوا عَقْلَ الشَّوَارِدِ وَ لَا تَلْقِحُوا عَوْنَانَ الْأَحْقَادِ فِيهَا الْمَتَّلَةُ الْمُسْتَأْصَلَةُ وَ الْجَاءَةُ وَ الْأَلِيَّةُ وَ عَفُوا بِالْحَلْمِ أَبْلَادُ الْكَلْمِ وَ أَنْبِيُوا إِلَى السَّبِيلِ الْأَرْشِدِ وَ الْمَنْهَجِ الْأَقْصَدِ فَإِنَّ الْحَرَبَ تَقْبِلُوا بِزِبْرِجِ الْغَرُورِ وَ ثَبِّرُوا بِالْوَلِيلِ وَ الثَّبُورِ“¹¹

“Eski va yangi iplarni bog‘lamanglar, bevalarini yukli qilmanglar¹² , (bu ish) qoidaga aylanmasin. Yashirin adovat olovini alangalatmanglar, ular (urushlar)da ildizi bilan sug‘urib oluvchi talafot-ofatlar va eng yaqin kishilardan judoliklar bordir. Aql bilan jarohat yaralarini bitiringlar. To‘g‘ri yo‘lga tushmoq uchun shafqat so‘rab iltijo qilinglar, maqsadga eltuvchi yo‘l so‘ranglar. Darhaqiqat, urush takabburlik zeb-ziynatlariga yuzlanadi, balo va halokat olib keladi.”

Ushbu xitoba majoziy tilda yoki, avvalgi bobda aytiganidek, “xoslar uchun” bo‘lib, johiliyat davri shohlaridan biriga tegishli. Notiqning xitobadan maqsadi besabab urushlar, ularning talafotlari hamda qurbanlari haqida so‘zlash orqali tinglovchilarni urushdan tiyilishga chaqirishdir. Bu xitobaning qayerda aytigani xususida ma’lumot yo‘q, ammo mazmunidan shoh va shohlik kengashi a’zolari va elchilarga qarata aytigan bo‘lishi mumkin.

Ilk o‘rta asrlar arab xitobalarining an‘anaviy uslublaridan biri buyruq mayli (II shaxs ko‘plik muzakkar jinsi uchun) fe’llari bilan qo‘llanganidadir, ya’ni “eski va yangi iplarni bog‘lamanglar, yashirin adovat olovini yoqmanglar” – deyish orqali notiq urug‘lar, qabilalar o‘rtasidagi munosabat-rishtalarni iplarga o‘xshatar ekan, “bog‘lamanglar” deyish bilan eski gina hamda adovatlarni yangilamanglar, demoqchi bo‘ladi. Bu istioraviy majozli jumla xitoba asosiy qismi boshlamasi vazifasini bajargan. Shoh o‘zining majoziy tildagi buyruqlari orqali darhol tinglovchilari diqqatini o‘ziga tortishga va qiziqtirishga intilgan.

“...yashirin adovat olovini yoqmanglar” jumlesi xitobadagi kompozitsion obrazdir. Olovning adovat asosida tug‘ilishi, yashirin bo‘lishi, yonishi obrazni ochib beradigan badiiy detallardir. Shoh bu jumla bilan uning atrofida yoki qo‘shni qabilalarda unga xayrixoh bo‘lmaganlar va pinhona adovat saqlovchilarga shama qiladi, adovat olovini yoqmaslikka chaqirar ekan, qabilalararo urushlarni esga oladi. “...Ularda (urushlar)da ildizi bilan sug‘urib oluvchi talafot-ofatlar va eng yaqin kishilardan judoliklar bordir”. Notiq davom etar ekan, urushning olov sifatida qanday oqibatlarga olib kelishini juda ta’sirchan – yarim mubolag‘a, yarim chin ruhida tasvirlaydi. Bu urush aslida olov, u tekkan narsasini kuydiradi, undan keyin yerda tomir otgan

¹⁰ Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.). – С. 12.

¹¹ احمد زكي صفوٰت، جمهُرَةُ خطبِ الْعَرَبِ، ج ١، ص. ١٢.

¹² Izoh :Bu ibora aslida tuyu haqida aytigan va masal bo‘lib ketgan, ya’ni biya o‘z uyuridan ajrab ketdi va boshqa uyuming kuchli ayg‘ir tuyasidan yukli bo‘ldi. Johiliyat davrida arablarda besabab urush boshlansa, ana shunday semantik frazeologizm qo‘llanilgan.

narsalar ham yo‘q bo‘ladi, kuyib bitadi, urushning boshqa nomi judolik – “al-alila” (yaqinidan ajrash, musibat)dir.

“...Aql bilan jarohat yaralarini bitiringlar”. Bu jumladagi jarohat yarasi kuchaytirilgan, ikkilantirilgan istiora – sababi urushning o‘zi – jarohat, jarohatning yarasi – uning og‘ir asorati.

“...Urush boshlanmasin” degan mazmunni majoziy tilda “to‘g‘ri yo‘lga tushmoq” deb ifodalagan notiq tinglovchilar shuurida nominativ ma’noda – yurishga oson yo‘l haqidagi manzarani chizsa, majoziy ma’noda to‘g‘rilik – rushd haqidagi ko‘plab axloqiy va ma’naviy talablarni tinglovchilarning ko‘z o‘ngida gavdalantiradi.

“...Darhaqiqat, urush takabburlik zeb-ziynatlariga yuzlanadi balo va halokat olib keladi”. Qadimda arablar orasida besabab urushlar chiqqanda, tomonlar birinchi bo‘lib sulh taklifi berishdan o‘zlarini olib qochgan va buni or-nomus ishi deb bilganlar, kibrga berilib, urushni davom ettiraver ganlar. Xitoba boshida majoziy tilda besabab urushlarga shama qilgan notiq xitoba so‘ngida tinglovchilarni yana majoziy tilda urush oqibatlaridan ogohlantiradi. Xitoba oxirida shoh johiliyat xitobalari uchun qariyb an’ana bo‘lgan katta she’riy parchani aytadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hajman kichikkina ushbu xitobada notiq o‘z fikrlari va da‘vatlarini mahorat bilan, mantiqan izchil tuza olgan va tanlangan uslubning davr uchun mukammal bo‘lishiga erishgan.

Ilk islom davri xitobalari uslubi. Islom dini kelgach, johiliyat xutbalarining ba’zi turlari, masalan munafara – bir necha xatibning shoh oldida nasl-nasabidan maqtanishi (tafaxur tarzida ham uchraydi), “saj’ al-kuhhan” – mutlaq sajda aytilgan johiliya kohinlarining turli vaziyatlarni bashorat qilishlari, huquqiy masalalarda hukm sifatidagi xitobalari butunlay, tasa‘ul-shoh va elchilar ba’zan qabila boshliqlari va qabila, ba’zan ota va farzandlari o‘rtasidagi donolik yuzasidan savol – javoblar deyarli yo‘q bo‘lib ketgan.

Notiqlik san’atining eng asosiy va eng muhim unsurlari – o‘ziga ishontirish va ergashtirishga tom ma’noda aynan ilk islom davrida ulkan ehtiyoj tug‘ilgan edi. “Bu ikki unsur xutbaning ikki qanotidir, u bilan xutba qabul qilinish manziliga yetadi, shu ikkisi orqali qalblarga va aqlarga kirib boradi, shular orqali tinglovchilar xatibni qabul qiladilar, qarshi oladilar, u bilan muloqotga kiradilar – xatib ularga xitob qila oladi. Shu bois ham xatib ishontirish va o‘ziga ergashtirishni amalga oshirishi, uni qabul qilishlari va uning xutbasidan ta’sirlanishlari uchun o‘z uslubini yaratishi va unga ishlov berishi lozim edi. Bu ikki unsurni haqiqatga oshiradigan uslub ikki narsa: balog‘at va kuch-quvvat bilan ajralib turishi kerak edi”¹³.

Ana shunday balog‘at va kuch quvvat ilk islom davrida islom payg‘ambari, ilk sahabalar – odil xalifalar, islom dinini birinchilardan bo‘lib qabul qilganlar uslubida namoyon bo‘ldi. Ilk islom davri xitobalari asosini Qur’oni Karim va hadisi sharifdan o‘rinli iqtiboslar keltirish tashkil etar va bunga qo‘srimcha ravishda, uni tinglovchilar islomgacha qanday yashagan bo‘lsalar, ularning real hayotlariga yaqin, ular o‘rgangan va ular qabul qilishi oson, sodda tilda yetkazishlari kerak edi. Negaki, yangi dinning muqaddas kitobi johiliyatdagagi arablar tushunmaydigan tilda nozil bo‘lmagan va Qur’oni karim ularga butunlay notanish bo‘lgan voqealar, qahramonlar yoki butunlay yangi bir tarix haqida so‘zlamas edi.

“Qur’on johiliyat asrining haqqoniy suratlarini beradi, degan e’tirof to‘g‘ri, chunki u johiliyatdagilarni hidoyatga chorlash uchun yuborilgan va johiliyatdagilarga esa ular tushunmaydigan tilda xitob qilinmagan. O‘quvchi bilsinki, johiliyat asri nasrining eng katta dalil va uning borligini tasdiqlovchi eng asosiy, haqqoniy dalil bu – Qur’ondir. Qur’onda johiliyat

¹³ إسماعيل علي محمد، فن الخطابة ومهارات الخطيب، ص 129.

izlari bor, deyishdan dahshatga tushish kerak emas, balki unda johiliyat asrining suratlari bordir¹⁴. Arab adabiyotshunosi shu o'rinda ko'p olimlar Qur'onda johiliyatga aloqadorlik borligini inkor etishlarini aytadi. Ammo uning o'zi Qur'ondagi tasavvurlar, taqlidlar va ta'birlarning barchasi johiliyat arablarida va islom payg'ambarining o'zi va boshqa xatiblar, yozuvchilar tilida ham bo'lganini ta'kidlaydi. Olim Qur'oni karimning ilohiyligini, muqaddasligini ta'kidlagan holda, aynan yuqoridaq kabi ilmiy qarashlarga asoslangan ba'zi sharqshunoslar, aslida arablarda umuman adabiy tur bo'lman, bo'lgani ham fors va yunon adabiyotidan olingan uslublardir, degan iddaolarini rad etadi¹⁵.

Ilk islom xatiblari o‘z nutqlarini aynan johiliyat davrlarida mashhur bo‘lgan shakl va uslubda, biroq yangi mazmun, yangi badiiy bo‘yoqlarda ifoda eta boshladilar.

“Islomiy xutbalarda uslub barqaror, sobit bo‘lishi kerak, ma’noni unga mos so‘z bilan ochish kerak. Chuqur ma’nolarni kuchli va qudratli so‘zlar, nafis ma’nolarni esa yumshoq so‘zlar aks ettirishi kerak” edi¹⁶.

Darhaqiqat, ilk islom davri xitobalarida xatiblar o‘z yelkasidagi buyuk vazifani his qilar va tinglovchilarga ham ana shu mas’uliyat yukini ortar edi. Bu davr xatiblari o‘z nutqlarida ko‘proq- "الله التقوى ألوان الحق والباطل إرشاداً عبواً المعروف و نهي منكر محسن هداية ضلالاً الجنة الجحيم.."

kabi islom dinining mohiyatini ochib beruvchi ko‘plab chuqur ma’noli so‘zлarni ishlatar edilar.

Ilk islom davri xitobalari uslubi xuddi johiliyat xitobalariniki kabi ritorik so‘roqlar, takrorlar, buyruq maylidagi fe’llar va, albatta, yorqin parallelizmlarga boy bo‘lgan. Saj johiliyat davridagiga nisbatan kam ishlatilgan.

Shu o'rinda ilk islom davrida islomni keng yoyish maqsadida bo'lgan janglarda qo'shinni ruhlantirish uchun aytilgan tipik xitoba uslubini ko'rib chiqamiz:

"يا عباد الله اتصروا الله ينصركم ويثبت أقدامكم"فإن وعد الله حق "يا معاشر المسلمين اصبروا"فإن الصبر مناجة من الكفر ومرضاة للرب ومحضنة للعار فلا تبرحوا مصافهم"و لا تخطوا إليهم خطوة و لا تدعوه بقتل"و أشرعوا الرماح"و استتروا بالدرقة" و الزموا الصمت الا من ذكر الله " حتى، أمركم ان شاء الله¹⁷ ".

“Ey Allohning qullari! G‘alaba hadya eting va Alloh sizni qo‘llab quvvatlaydi, oyoqlaringizni sobit (mustahkam) qiladi. Darhaqiqat, Allohning va‘dasi haqiqatdir. Ey musulmonlar jamoasi! Sabr qilinglar, haqiqat shuki, sabr bu – kufrdan najotdir, Allohning roziligidir, sharmandalik (xo‘rlik)dan xalos etilishdir, Sizlar ziyraklikdan to‘xtamang, ular tomonga qadam tashlamang, ularga birinchi bo‘lib urush ochmang. Nayzalarni o‘qtalinglar, qalqon ortiga yashirininglar! Faqat Alloh zikri uchun sukut saqlanglar, toki Alloh sizlarni amir (hokim qilib) qo‘yguncha.”

Ushbu xitoba turi diniy-siyosiy ruhlantiruvchi xitoba hisoblanadi. Bu xitobadan ko‘zlangan maqsad ko‘p sonli dushmanga qarshi jangdan oldin qo‘sinni ruhlantirish, g‘alaba qozonishlariga ishontirishdir. Xatib xitobning boshida “Ey Allohning qullari” deb murojaat qilarkan, o‘z askarlarini jangda Allohning qullari (ya’ni Allohning barcha buyruq, ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajaradigan insonlar sifatida) deb ataydi. Negaki bu urush – o‘zini Alloh qullari deb biluvchi va Allohning rahmatidan umidvorlarning jangi. Allohning qullariga berilgan buyruq g‘alaba qozonishdir. Ammo notiq g‘alaba faqat qullarning o‘zigagina tashlab

¹⁴ زكي مبارك، النثر الغنوي في القرن الرابع الهجري، ص 39.

¹⁵ Qarang: shu manba, shu bet.

¹⁶ سماuel علی محمد، فن الخطابة و مهارات الخطيب، ص 129.

¹⁷ أحمد زكي صفوٌ، جمهرة خطب العرب، ج 1، ص. 203.

qo'yilmaganini, ya'ni ular buyruqni bajarsalar, Allohning o'zi yordam berajagini e'tirof etadi: "Alloh sizni qo'llab quvvatlaydi". Bundan avvalgi jumlada "نصر" fe'li buyruq maylida qo'llanilganida, "g'alaba hadya eting" ma'nosida kelgan bo'lsa, ikkinchi marta ayni fe'l boshqa shaklda: "Alloh sizlarga yordam beradi" ma'nosida ishlatilgan, tajnis hamda tanosub san'atlarini yuzaga chiqqargan.

Endi xatib askarlarni ishontirish uchun Allohning yordami qanday bo'lishini tasvirlaydi: "qadamlaringizni (erda) sobit qiladi" – bu istiora orqali xatib jangda qo'shining o'ziga ishonchi ularning mustahkam oyoqlarida ekaniga, mustahkam oyoqlar esa sobitqadamlikni ta'minlashiga ishora qiladi va bunda sizga Alloh yordam beradi demoqchi bo'ladi.

Keyingi jumla "إن" kuchaytirish yuklamasi bilan boshlanadi va "Allohning va'dasi haqiqat"dir degan mazmunni ta'kidlashga xizmat qiladi. Bunda muslimmonlar e'tiqodining asosini tashkil etuvchi Allohning va'dasi, albatta, amalga oshishiga ishonish kerakligi askarlar yodiga solinadi.

Xatib keyingi fikrlarga o'tishida "Ey muslimmonlar jamoasi" undalmasini qo'llaydi. Mazkur undalma yordamida jangchilar nafaqat Allohning qullari, balki yagona xalq, yagona jamoa vakili sifatida ko'rsatiladi. Bu o'rinda haqiqiy jangchi muslimnonning asosiy fazilati nima ekani aytildi va keyingi ko'rsatma shunday yangraydi: "Sabrli bo'linglar. Nega sabrli bo'lishingiz kerakligini bilasizmi, ey muslimmonlar, chunki "sabr bu kufrdan najotdir" (islom aqidasiga ko'ra kufr eng ulkan gunoh sanaladi). Muslimnonlarning muqaddas orzusi – "Allohning roziligidir", jangchining eng qo'rqinchli ahvoli "sharmandalik (xo'rlik)dan xalos etilishdir".

Ko'rib turganimizdek, usta notiq jangehilarni ruhlantirishda, ular uchun muqaddas aqidalarni ehtiyyotkorlik bilan tilga oladi, har bir jangchining "g'alaba"ga ayni ilohiy buyruq va ko'rsatmalardan kelib chiqib, jang qilishlari kerakligi tushuntirilmoqda. Xitobaning keyingi qismi haqiqiy harbiy ko'rsatma shaklida davom etadi.

Bunday uslub ilk islom davrida islomiy xitoba aytuvchi ko'plab xatiblar tomonidan qo'llangan.

Ummaviylar davri xitobalari uslubi. Ummaviylar davriga kelib, xitoba butun arab adabiyotida muhim va yetakchi o'rin tutdi, o'zining kamolot bosqichiga yetdi. Endi bu davr xitobalarida individual uslub tamoyillari yaqqol ko'zga tashlana boshladи.

Darhaqiqat, xitoba ummaviy xalifalar hukmronligi davrida ham majoziy, ham hayotiy ma'noda qurolga aylandi. Endi xatiblarning qurollari qanchalik qudratli yoki zaif ekanligini ularning tanlagan uslublarida ochiq-oydin ko'rish mumkin edi. Har bir xitoba boshlanishidanoq xatib shaxsiyati, xarakteri, irodasi, teran aqli yoki falsafiy idroki kabi xususiyatlarni tinglovchi ko'z o'ngida namoyon etar edi. Birinchi ummaviy xalifa Muoviya Abu Sufyonning nutqlarida uning daholigi va juda mohir, vaziyatlarni o'z foydasiga hal qilishda juda kuchli diplomat ekanligi zohir bo'lsa, ummaviy voliyaridan Ziyod bin Abihi, al-Hajjoj Yusuf as-Saqafiy, Ubaydulloh bin Ziyod, Marvon bin al-Hakamlar uslublaridagi tahdid va shafqatsizlikni ifodalovchi uslub tinglovchilarda nafrat, qo'rquv, zo'ravonlikka mahkumlik yoki adovat singari salbiy hislarni uyg'otar edi. Umar bin Abdulaziz, Hasan al-Basriy, Qutri bin al-Faja'a uslubiga xos samimiylirk, poklik, taqvo va go'zal ibodatlarga chorlovchi so'zlar esa tinglovchilarda mehr-muhabbat, dunyoga hirs qo'ymaslik, toat-ibodatda qoim mo'minlik hislarini junbushga keltirardi. Ba'zan birgina tinglovchini atash chog'idagi murojaatning o'zidayoq xatib qanday uslub yoki qanday maqsadda xitoba aytishi haqida yetarlicha ma'lumot olish mumkin bo'lgan, tabiiyki, bunday murojaatlar xatib nutqining ta'sirchanligini yana bir parda oshirgan.

Bu davr xaritasida yonayotgan yoki so'nayotgan ehtiros, g'azab va nafrat, muloyimlik yoki qo'pollik, rahm-shafqat yoki shafqatsizlik kabi hislar arab jamiyatida har kuni sodir bo'layotgan shiddatli siyosiy voqealar girdobida soat sayin o'zgarib turgan. Har bir xatib va tinglovchilar uchun vaqt chegaralab qo'yilgan. Mazkur talabdan murod esa xitobalarni: "yaxshi uslub javob bera oladigan asosiy talab – o'quvchi yoki tinglovchining diqqatini iqtisod qilish, so'zlarning tanlanishi, nutqda o'z o'rnini topishi, vazndoshligi va boshqa me'yorlarni taqozo qiladi"¹⁸ gan holatga to'la yetkazish bo'lgan. Ummaviylar davri xitobalari uslubi johiliyat va ilk islom davridan butunlay farq qiladigan yangi uslubda vujudga kelgan, deb aytish o'rinsiz, biroq bu davr xatiblari an'anaviy kompozitsion strukturalari va syujetiga biroz o'zgarishlar kiritgan.

Biroq, aytish joizki, ummaviylar davriga taalluqli xitobalar orasida alohida uslubga ega, o'zida aytuvchining shaxsiyati, ichki olamini zohir etuvchi xitobalar ko'proq uchraydi. Masalan, birinchi ummaviy xalifa Muoviyah Abu Sufyan manbalarda juda uzoqni ko'ra oladigan, davlat ishlarida tadbirli, kuchli siyosatchi, adabiyot va san'atni sevadigan mahoratli notiq sifatida ta'riflanadi. Hatto uning davrida shiddatli qarama-qarshiliklar, ixtiloflar bir muddat pasaygani, urushlar to'xtagani ham aytildi¹⁹. Muoviyaning tilga olingan sifatlari xitobalarda uning o'ziga xos uslubi vositasida namoyon bo'ladi. Muoviyaning Madinaga kelib, xalq oldiga aytgan xitobasidan olingan quyidagi parchada buni ko'rish mumkin:

"أَمَّا بَعْد... فَسَلَكَتْ بِهَا طَرِيقًا لِي وَ لَكُمْ فِيهِ مِنْفَعَةٌ: مُؤَكَّلَةٌ حَسَنَةٌ وَ مُشَارِبَةٌ جَمِيلَةٌ" فَإِنْ لَمْ تَجُدُنِي خَيْرَكُمْ فَإِنَّى خَيْرٌ لَكُمْ
وَلَا يَأْتِيَ اللَّهُ لَا يَحْمِلُ السَّيْفَ عَلَىٰ مَنْ لَا سَيْفٌ لَهُ وَ إِنْ لَمْ يَكُنْ مِنْكُمْ إِلَّا مَا يَسْتَشْفِي بِهِ الْقَاتِلُ بِلِسَانِهِ فَقَدْ جَعَلَ ذَلِكَ لَهُ نَبْرَ أَنِّي
وَ تَحْتَ قَدْمِيٍّ وَ إِنْ لَمْ تَجُدُنِي أَقْوَمْ بِحَقِّكُمْ كُلِّهِ فَاقْبِلُوا مِنِّي بَعْضَهُ فَإِنْ أَتَكُمْ مِنِّي خَيْرٌ فَاقْبِلُوهُ لِإِنَّ السَّيْلَ إِذَا جَادَ يُثْرِيٌّ وَ إِذَا قَلَ
أَغْنَىٰ يَأْكُمْ وَ الْفَتَنَةُ فَإِنَّهَا تَفْسِدُ الْمَعْشِيَةَ وَ تَكْدِرُ النَّعْمَةَ"²⁰

"Amma ba'd...Men o'zim va sizlar uchun (unda) manfaat: yaxshi yeb, chirolyi ichish - bor bo'lgan yo'lga kirdim. Agar meni o'zingiz uchun yaxshi deb bilmasangiz , darhaqiqat, men sizlar uchun boshqaruvda yaxshi bo'laman. Allohga qasamki, qilichi yo'qqa qilich ko'tarmayman, magaramki sizlarning orangizdan tilini davolashga hojatmandlar bo'lmasa. Agar shunday qilsa, ya'ni tilini tiysa, o'zini tartibga keltirsa, men gina saqlamayman, bu ishni qulog'imdan nariga, oyog'im ostiga tashlayman. Darhaqiqat, sel ko'p bo'lsa boyib ketadi, kam bo'lsa yetarli darajada bo'ladi. Bu fitna sizlar uchungina, darhaqiqat, ro'zg'oringizni buzadi, ne'matni g'amga aylantiradi."

Muoviyah o'zining boshqaruvda qanchalar xalqparvar ekanini, xalq uchun manfaatli yo'l topganini ta'kidlarkan, bu yo'lni, eng avvalo, insonning eng muhim ehtiyojini qondirish ko'rinishida - yaxshi yeb, chirolyi ichish" kabi so'zlar orqali ifodalaydi. Biroq keyingi jumlalarda o'zining qudratini namoyish etishga qodirligiga ishora qiladi: "فَإِنْ لَمْ تَجُدُنِي خَيْرَكُمْ فَإِنَّى خَيْرٌ لَكُمْ وَلَا يَأْتِيَ اللَّهُ لَا يَحْمِلُ السَّيْفَ عَلَىٰ مَنْ لَا سَيْفٌ لَهُ" agar meni o'zingiz uchun yaxshi deb bilmasangiz, darhaqiqat, men sizlar uchun boshqaruvda yaxshi bo'laman.

Muoviyaning qo'l ostidagilar bilan "manfaatli" kelishuv taklifi – amalgalashtirish - amalga oshmasa, u holda keyingi yo'lni tanlashiga ishora beradi: "Boshqaruvda yaxshi bo'lish bir qarashda oddiy sifatlashdek ko'ringani bilan jumlada Muoviyah bir paytning o'zida qanchalar qahrli va shafqatsiz hukmdor bo'lishga qodirligiga ishora qilgani anglashiladi va bu kinoya san'atini qo'llab namoyon etiladi.

¹⁸ Qarang: Веселовский А.Н., Историческая поэтика .-С.273.

محمد شاكر، التاريخ الإسلامي، ج. 3. الخلفاء الراشدون، ص 6.

أحمد زكي صفت، جمهرة خطب العرب، ج 2، ص 183.

وَاللَّهُ لَا أَحْمِلُ السَّيْفَ عَلَىٰ مَنْ لَا سِيفَ لَهُ وَإِنْ لَمْ يَكُنْ مِنْكُمْ إِلَّا مَا يَسْتَشْفِي بِهِ الْقَاتِلُ بِلْسَانِهِ – Allohga qasamki, qilichi yo‘qqa qilich ko‘tarmayman, magaramki, sizlarning orangizdan tilini davolashga hojatmandlar bo‘lmasa.

Muoviya aholiga o‘z shartlarini qo‘yar ekan, dastlab o‘zini mard, ko‘ngli yumshoq hukmdor sifatida tanishtiradi, ayni paytda, tilini tiymaganlar bundan mustasno ekanini aytadi: tiliga shifo zarurlar – eshituvchilar uchun – “fitnaga rag‘bati borlar, norozilik qilib, hokimning boshqaruvi haqida bo‘lar-bo‘lmas gaplar tarqatib yuruvchilar” haqida gap ketganini anglatadi. Muoviya aholining bunday ishlardan tiyilishi kerakligini ta’kidlaydi va tili bilan yuradiganlarga shafqat qilmasligini majoz orqali yetkazadi:

دَبَرَ أَذْنَى وَتَحْتَ قَدْمَى - Agar shunday qilsa, ya’ni tilini tiysa, o‘zini tartibga keltirsa men gina saqlamayman, bu ishni qulog‘imdan nariga, oyog‘im ostiga tashlayman. Bu jumlada Muoviya shartlarini davom ettiradi va xalqqa yana imkon bergandek: qulog‘imdan nari, qadamim ostiga tashlayman, deydi. Chunki u xalqning nafrati va qudratini chuqur his qilgan hukmdor, bu so‘zları bilan u kichik noroziliklar va adovatlarni unutishga tayyorligini bildirmoqchi bo‘lgan.

Yoki: دَبَرَ أَذْنَى وَتَحْتَ قَدْمَى

Ushbu jumlada Muoviya “bo‘lak orqali butunni ifodalashga xizmat qiluvchi ko‘chim turi – metonimiyadan foydalangan, ya’ni quloq insonning ta’na a’zosi – bo‘lak, shu bo‘lak orqali insonning o‘zi – butun ifodalanmoqda.

Yoki: 'وَإِنْ لَمْ تَجِدُنَّى أَقْوَمَ بِحَكْمٍ كَلَهُ فَاقْبِلُوا مِنْ بَعْضِهِ إِنَّكُمْ مِنْ خَيْرِ فَاقْبُلُوهُ – Agar meni sizning barcha haqingizni ado etuvchi deb hisoblamasangiz, mendan ularning ba’zisini qabul qilinglar. Mendan sizga yaxshilik bo‘lsa, uni qabul qilinglar.

Ushbu xitoba parchasida Muoviya o‘zini qo‘li ochiq, saxovatli qilib ko‘rsatishga urinadi, ya’ni Muoviya men sizlarning haqqingizni bermasligim mumkin, siz shunday deb o‘ylayapsizmi, demak, bunda haqsiz. Ammo men berganimni qabul qilinglar, – der ekan yana o‘zining boshqaruv shartlarini qo‘ya boshlaydi: **لَإِنَّ السَّيْلَ إِذَا جَادَ يُثْرِيُ وَإِذَا قَلَ أَغْنَى إِيَّاكُمْ وَالْفَتْنَةُ إِنَّهَا تَقْسِدُ الْمَعْشِيَةَ وَتَكْدِرُ النَّعْمَةَ** – Darhaqiqat, sel ko‘p bo‘lsa boyitadi, kam bo‘lsa(ham), yetarli darajada bo‘ladi. Bu fitna sizlar uchungina, darhaqiqat, ro‘zg‘oringizni buzadi, ne’matni g‘amga aylantiradi.

Muoviya yuqoridagi jumlada o‘zini selga o‘xshatadi. Ya’ning uning ko‘pligi – boylik, kamliyi – yetarlilik. Bu tashbihda Muoviya o‘zini selning bir necha sifatlari orqali tasvirlaydi: 1. Sel jazirama sahro uchun suv, ya’ni tiriklik ramzi. Bunda Muoviya o‘zini selning ana shu sifatiga nisbat beradi, ya’ni men siz uchun hayotman demoqchi bo‘ladi. 2. Sel falokat ham bo‘lishi mumkin, ya’ni daraxtlarni, ekinlarni ildizi bilan ko‘chirib olib keta oladigan, aholining hayotini qiyinlashtiradigan kulfat ham bo‘lishi mumkin. Muoviya selning ana shunday sifatlarini o‘ziga nisbat berishi orqali butun xitoba davomida ta’kidlamoqchi bo‘lgani – hukmdorlik qudratiga urg‘u bermoqchi bo‘ladi.

Keyingi jumlalarida esa selning juda ko‘p hajmdagi suv miqdori ekanini ta’kidlarkan, u o‘zining qahri ham, muhabbatи ham juda ko‘p ekaniga ishora qiladi: **“إِذَا جَادَ يُثْرِيُ وَإِذَا قَلَ أَغْنَى**

Muoviyaning ushbu xitobasi orqali aytmoqchi bo‘lgani uning sabrli hokim sifatida qo‘l ostidagilariga siyosatini batafsil tushuntirishidan maqsadi bitta, ya’ni unga qarshi chiqmaslik, balki itoatda bo‘lishni singdirishdir. Shu sababli xitobasi yakunida shunday deydi: **إِيَّاكُمْ وَالْفَتْنَةُ إِنَّهَا تَقْسِدُ الْمَعْشِيَةَ وَتَكْدِرُ النَّعْمَةَ** – Sizlar uchun bu fitna (zararliroqdir), darqaqiqat, u sizlarning ro‘zg‘orlaringizni buzadi va ne’matni (hayotingizni) baxtsizlikka aylantiradi.

Muoviya o‘z maqsadini ushbu jumlalarda tinglovchilar uchun juda yaqin va hayotiy haqiqatlarni ro‘zg‘or, ne’mat so‘zлari, “ro‘zg‘orni buzish, ne’matni g‘amga aylantirish” metonimik ko‘chishlar orqali ifoda etadi.

Arab xitobalari uslubi bu qadim adabiyotning ham nazmiy, ham nasriy namunalariga qo‘yiladigan asosiy talablarga javob beradi. Ilk o‘rta asrlar xitobalari xalqqa tushunarli bo‘lgan, chunki ularda xalq har kuni qo‘llaydigan so‘zlardan, iboralardan foydalaniłgan, ya’ni ommaga tushunarli tilda aytilgan. Arab notiqlarining fikri, maqsadi vaziyatga mos tarzda aniq bayon qilingan.

Uslubning tiniqligi aynan diqqatning harakatini tejash bilan baholanadi. Arab xitobalari hajman juda kichkina, ammo ulardan anglashilgan mazmun salmoqli bo‘lgan. Notiqlar xitobalarda turli badiiy san’atlarni ayni o‘scha aniqlik talabiga javob beradigan tarzda qo‘llaganlar, uslubning qadri, maqomi aynan kam so‘z bilan imkon qadar salmoqli mazmunni yetkaza olishda, deb tushunganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика. – Москва : Наука, 1983. -258 с.
2. Куделин А. Б. Арабская литература: поэтика, стилистика, типология, взаимосвязи /Рос. Академия наук. Ин-т мировой литературы им. А. М. Горького. –М.:Языки славянской культуры, 2003. – 512 с.
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. - Москва, Высшая школа, 1989. – 406 с.
4. Шидфар Б. Я. Образная система арабской классической литературы (У1-ХП вв.). Москва: Наука, 1974. -254с.
5. V.G.Belinskiy. “Adabiy orzular”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1977.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent, Fan, 2008. – 160 b.
7. Гаффарова У.А. Арабское ораторское искусство (хутба) YI - середины YIII вв. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 1989.
8. إيميل ناصيف، أروع ما قيل عن الخطب، دار الجيل، بيروت، ط 1، 1990
- د. إسماعيل علي محمد، فن الخطابة ومهارات الخطيب، (2016)، دار كلمة النشر والتوزيع القاهرة .
- الفقيهendi، أبو العباس أحمد بن علي، صبح الأعشى في صناعة الإنشاء، (1971)، تحقيق محمد حسين شمس الدين، دار الكتب العلمية، بيروت